

**INGLIZ TILINI O`QITISHDA SO`ZLASHUV MAHORATINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Absayitova Parizoda Asliddin qizi

Ilmiy rahbar Zubaydova Nilufar Negmatullayevna

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilini o`qitishda so`zlashuv mahoratini rivojlanirish usullari haqida so`z yuritiladi. Til o`rganish jarayonida so`zlashish ko`nikmasini rivojlanirish juda muhim. Chunki, u boshqa til ko`nikmalariga, masalan, o`qish, yozish va tinglab tushunish ko`nikmalarini ham parallel tarzda rivojlanirib borishda juda muhim ko`nikma hisoblanadi. Ingliz tili o`rganuvchilarining so`zlashuv qobiliyatini oshirish uchun, asosan, boshqa ko`nikmalar ham o`z yordamini beradi. Misol uchun, tinglab tushunish ko`nikmasi orqali so`zlarning talaffuzi o`rganiladi va o`qib tushunish ko`nikmalarida esa o`quvchi qisqa va soda matnlar bilan ishslash, interaktiv faoliyatlar, audio va video materillardan foydalanish, subtitrlardan foydalanish, notanish so`zlarni taxmin qilish mahoratini rivojlanirish, oraliq natijalarini tahlil qilish va baholash kabi nazariyalarga yondashadi. Va bundan tashqari kundalik podcast, musiqalar tinglash va turli aksentlarda videolar ko`rish samarali usullar hisoblanadi.

Kalit so`zlar: ingliz tilida so`zlashuvni rivojlanirish, audio va video materiallar, subtitrlar, taxmin qilish mahorati, natijalarni tahlil qilish va baholash mahorati.

Bilamizki, so`nggi 10 yil ichida nafaqat bizning yurtimiz, balki, butun jahon miqiyosida ingliz tilini o`rganishga bo`lgan talab va istaklar kancha kuchaydi. Ingliz tiliga iqtisoslashgan turli zamonaviy maktablar, listey va kollejlar ochilmoqda. Bundan tashqari, faqatgina davlat ta`lim berish standardlariga tayanibgina qolmay hozirgi kunda turli tillarni o`qituvchi til markazlari tashkil

etilmoqda. Shundan ma'lumki, ingliz tiliga bo'lgan talab yoshlar orasida anchagina keng ko'lamda o'sib bormoqda. Va yosh avlod ko'plab yuksak natijalarga aynan ingliz tilini o'rganish zamirida erishib kelmoqda. Ingliz tilini o'rgatish va o'rganishda yuksak marralarga erishish uchun to'rtta ko'nikma ya'ni o'qish, yozish, gapirish va tinglash mahoratlarini samarali tarzda rivojlantirish kerak. Bularning barchasi bir biriga zanjir kabi bog'langan bo'lib, har birini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'zlashuv (speaking) ya'ni nutq ko'nikmalari haqida so'z ochadigan bo'lsak, ushbu mahorat har qanday tilni o'rganishda muhim rol o'ynaydi, chunki til o'rganishning asosiy maqsadi fikrlarni boshqalar bilan bo'lishish demakdir. So'zlashuv orqali o'rganilgan grammatik qoidalar va yodlangan lug'at boyligi real vaziyatlarda qo'llaniladi. Agarda lug'at boylik yetarli darajada unumli va o'z o'rnila foydalanilsa, so'zlashish orqali fikrlarni hech qanday monotone siz va erkin ifoda etishni o'rganish mumkin bo'ladi, bu esa insoni o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va ushbu lug'at so'zlarni amaliyotga joriy etib so'zlashuvda qanday talaffuz qilish, qay tarzda ma'nodorligini namoyon etish imkoniyatini beradi. Qo'shimcha qilib aytganda, amaliyotda so'zlashish so'zning talaffuzi va ohangini o'zgartirishga yordam beradi. So'zlashuvni amaliyotga joriy etish deganda, misol uchun, turli tarixiy obidalarimizga tashrif buyurgan chet ellik mehmonlar bilan ingliz tilida suhbatlashish va bu orqali madaniy tushunchalar, turli xil ifoda uslublarini o'zlashtirish mumkin. So'zlashuv (speaking) ko'nikmasini rivojlantirish uchun turli ekspert va xalqaro sertifikatlarga ega o'qituvchilar tomonidan bir qancha maslahat va yo'llarga amal qilish kerak bo'ladi. Albatta har bir til o'rganuvchi o'ziga ingliz tilini o'rganayotgan sherik topib kundalik hayotdagi hodisalarini muhokama qilishi va fikr almashishi kerak bo'ladi. Bu orqali ikkala sherik ham yangi fikrlar va yangi lug'at boyligiga ega bo'lishadi. Faqat shu bilan cheklanibgina qolmay, internet tarmog'idan turli **podcastlar** va **filmlarni** ingliz tilida tomosha qilish, tinglab tushunish orqali yangi iboralarni o'rganib so'zlashuvda tatbiq etishga ham yordam beradi. Va eng

samarali yo'li shu eshitilgan podcast va filmlardan imkoniyat darajasida "shadowing" texnikasini qo'llab ko'rish tavsiya etiladi.

"Shadowing"- ya'ni soya, soyadan ergashish degan ma'nolarni beradi. Ushbu texnika asosan podcast va filmlardan parcha olinib so'zlovchining ketidan o'sha gapni qaytarish tushuniladi. Bunda o'rganuvchi turli talaffuzdagi muammolarini tahlil qilishi, o'zini o'zi baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarmoq orqali turli xil audio va video vositalaridan foydalanish tinglab tushunishni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bunda turli nutqdagi aksentlar, mavzu va ko'pgina vaziyatlarda tayyorlangan tinglov matnini tanlash kerak. Bundan maqsad , bu kabi materiallar o'quvchilarga turli aksentlar, holatlar va talaffuzlar bilan tanishish imkonini beradi va real hayotda turli xil gapiruvchilar bilan muloqot qilishga tayyorlaydi. Qolaversa, So'zlashuv qanchalik ko'p amaliyotda bo'lsa shunchalik yaxshilanadi va xatolar to'g'rilanib boraveradi.

Til kurslariga qatnashish ham yaxshi natija beradi. Hozirgi kunda judayam ko'p o'quv markazlari o'z ish faoliyatlarini har bir shahar, har bir tumanda olib borishmoqda. Albatta bu kabi til o'qitish kurslari o'qish, yozish, tinglab tushunish va nutq ko'nikmalarni sezilarli darajada oshirib berishadi va IELTS, CEFR va TOEFL kabi imtihonlarga yo'l-yo'riq ko'rsatadilar. IELTS yoki boshqa sertifikatlarni olishga mo'ljalangan til kurslari ko'pincha ko'nikmalarni o'zaro bog'lab nutq ya'ni so'zlashuv ko'nikmalariga asosiy e'tiborni berishadi. Imtihonga tayyorlov jarayonlarida esa, turli savollarga javob berishga doimiy ravishda tayyorlab, chet ellik ekspertlar bilan muloqotga kirishib ketishga yordam berishadi.

Ma'lumki ingliz tiliga bo'lgan ishtiyoq ko'proq maktab o'quvchilarida ko'proq bo'lib, maqsad tomondan olib qaraydigan bo'lsak, ko'pincha chet el universitetlarida o'qish va ishlash uchun o'rganiladi. Bularning barchasi yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalarni egallash orqali erishiladi. O'zaro muloqot, ta'lim jarayonida ma'lumotlarni qabul qilish, ijtimoiy vaziyatlarda tog'ri harakat qilish, kundalik hayotda fikrlarni to'g'ri baholash- bularning barchasi tinglab tushunish va so'zlashuv mahoratlariga bog'liq.

Xulosa: ingliz tilini o'qitishda va o'rganishda tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va so'zlashuv mahoratlarini rivojlantirish murakkab va uzlusiz jarayon hisoblanadi. Bularning barchasi muhim element hisoblanadi va umulashgan holda ingliz tilini qanchalik darajada puxta va mukammal o'rganilganini belgilaydi. Asosan so'zlashuv ko'nikmasi har tomonlama insonlar ongida aks etadigan tasavvur va g'oyalarni suhbatdoshga yetkazishda qo'l keladi. Va ushbu ko'nikmani qiziqarli va samarali shakllantirish o'rganuvchining qanday metodlardan foydalanayotganiga bog'liq vaziyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet manbaasi :<https://moluch.ru/archive/309/69719/>
2. Wikipedia